

## TERMIZ SHAXRI SHAROITIDA ROBINIA PSEUDOACACIA L NING SUTKALIK GULLASH DINAMIKASI VA ASALSHIRALIGI

**Egamberdiyeva Shohistaxon Suyunovna**

Biologiya yoʻnalishi , 2-kurs magistr

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Termiz shaxri sharoitida oʻstirilayotgan Soxta akatsiya (*Robinia pseudoacacia* L.)ning sutkalik gullash dinamikasi va nektar ajratishi tahlil qilingan. Olingan ilmiy natijalarga asoslanib soxta akatsiyada gullash jarayoni mart oyining oxiri va aprel oyining boshlariga toʻgʻri keladi. Har bir gul 3-4 kun davomida ochilib turadi va 1-2 mg dan nektar ajratadi.

**Kalit soʻzlar:** *Robinia pseudoacacia* L, gullar, sutkalik gullash dinamikasi, mikrokapilyar.

### KIRISH

Soxta akatsiya (*Robinia pseudoacacia* L) 30 m balandlikdagi bargli daraxt, diametri 30-40 sm. Robiniyalarning barcha turlari manzarali daraxtlar sifatida yetishtiriladi va faqat soxta akatsiya oʻrmon va meliorativ maqsadlarda ishlatiladi. Poʻstlogʻi quyuq kulrang, uzun boʻylama yoriqlari, yoshligida kulrang-jigarrang. Barglari navbatma-navbat joylashgan, soxta akatsiya toq-patsimon barglarga ega boʻlib, 7-19 barglari elliptik shaklga ega. Bahorda barglari yashil, ipak-tukli, yozda ular quyuq yashil, baʼzan sargʻish, pastki qismi yaltiroq, tekis koʻrinadi [1] [7]. Gullari ikki jinsli, zigomorf, shingilsimon toʻpgullarda oʻrnashgan. Soxta akatsiya mart oyining oxirlarida - aprel oyining boshlarida juda chiroyli boʻlib gullaydi. Gullari oq rangda. Meva 5-12 sm uzunlikdagi jigarrang, tekis, chiziqsimon choʻzinchoq poʻstloqli. Meva fasol, choʻzilgan, uzunligi 6 sm gacha, tekis, toʻq jigarrang rangga ega. Ularning har birida oltidan sakkiztagacha urugʻlar boʻladi. Sentabr oyining oxiriga kelib pishadi. Mevasi koʻp urugʻli yassi dukkak, 1000 ta urugʻining ogʻirligi 20-25 g keladi. Urugʻlari va gullari tarkibida 12% gacha efir moyi mavjud boʻlib, ular parfyumeriyada ishlatiladi. [6] Soxta akatsiya ajratadigan asalshira miqdorining koʻpligi va asalining sifatligi bilan ham ajralib turadi, shuningdek manzarali oʻsimlik hisoblanadi, asosan qalamchalaridan koʻpaytiriladi.

### ASOSIY QISM


2017- yil 16-oktabrdagi PQ-3327-son “Oʻzbekiston Respublikasida asalarichilik tarmogʻini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi“ qaroriga muvofiq soxta akatsiyani koʻpaytirish, ixota tashkil qilish, shaxar koʻchalariga ekish,

ko'kalamzorlashtirish bilan birgalikda sifatli va ko'p miqdorda asal olish imkonini beradi. Bundan tashqari Soxta akatsiya yog'ochligi qattiq daraxtlar qatoriga kiradi va undan duradgorlik buyublari ham yasaladi. Soxta akatsiya gulining asalshiraligini o'rganish M.M.Guluxov va mikrokapilyar metodidan foydalangan holda aniqlandi, gullash biologiyasi, sutkalik va mavsumiy gullash dinamikasini A.N. Ponomaryov metodi asosida tahlil qilindi [3]. O'simlikning gullash dinamikasini o'rganish 2022-2023 yillar davomida Termiz shaxri sharoitida olib borildi. O'simlikning gullash fazasi 14-16 kun davom etadi: birinchi gullash yilida quyosh sharoitidagi o'simliklarda mart oyining oxiridan aprel oyining o'rtalarigacha, ikkinchi yil gullaganda birinchi yilga nisbatan bir necha kun erta gulladi (1-jadval).

**Soxta akatsiya (Robinia pseudoacacia L ) ning gullash fenologiyasi  
(3 tup o'simlikda kuzatildi.) 1-jadval**

Kuzatilgan yil	G'unchalar boshlanishi	Gullash davri			
		Boshlanishi	Yoppasiga	Tugashi	Davomiy Ligi
2022	20.03	26.03	31.03	11.04	16
2023	15.03	20.03	24.03	07.04	17

Soxta akatsiya yorug'savar o'simlik bo'lib, ochilgan gullari kunduzi ham, kechasi ham ochilib turadigan gullar toifasiga kiradi. Asalarilar yordamida changlatiladi. Termiz shaxri sharoitida o'rtacha bitta gul 1 gr dan 2 gr gacha asal berishi aniqlandi . Gullari 3-4 kun davomida gullab turadi.




**Soxta akatsiyaning sutkalik gullash dinamikasi (1-diagramma )**

**XULOSA**

Soxta akatsiya ixotalarini va plantatsiyalarini tashkil qilish 1 gektar maydondan 300- 350 kg gacha asal olish imkonini beradi. Akatsiya asali mikroblarga qarshi, antiseptik va restorativdir. Yaralarni davolash, gipertenziya qon bosimini pasaytirish,

immunitetni oshirish, qarishga qarshi, yurak-qon tomir tizimini kuchaytirish, shilliq qavatning tiklanish jarayonini tiklash va tezlashtirish soxta akatsiya asalining asosoy xususiyatlari hisoblanadi.



### Fabace oilasi vakillarining asal mahsuldorligi (2-diagramma)

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Dendrologiya / A.K. Qayimov, E.T. Berdiev, H.F.Hamroev, S.A.Turdiyev. - Toshkent : Fan va texnologiya markazi, 2014.
2. Mixail Mixaylovich Gluxov A L B O M M Ye D O N O S O V M O S K V A -1960
3. Zaxarova Ye. I. (NGSXA, g. Nijniy Novgorod, RF) SRAVNITELNBIY ANALIZ SEMENNOGO POTOMSTVA, DEREVEV ROBINII LJEAKATSII (ROBINIA PSEUDOACACIA L.), V NIJEGORODSKOY OBLASTI 2005
4. Christin Carl 1,2,\*, Dirk Landgraf 2 , Marieke van der Maaten-Theunissen 3 , Peter Biber 1 and Hans Pretzsch Robinia pseudoacacia L. Flowers Analyzed by Using An Unmanned Aerial Vehicle (UAV) 2017
5. Minikov S. G. Medonosnye rasteniya Ka zaxstana. Alma-Ata, «Kaynar», 1974.
6. Karshiboev X.K. Antekologiya maxsus kursidan ukuv-metodik majmua (ukuv kullanma). Guliston, 2008 84 bet.
7. Губанов, И. А. и др. Robinia pseudoacacia L. – Робиния лжеакация, или Белая акация // Иллюстрированный определитель растений Средней России. В 3 т.